

BOLALAR MUSIQA FOLKLORI VA UNING XALQ MUSIQA RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Musiqa madaniyati
fakulteti talabasi*

Salimova Dilafruz Ibragimovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Musiqa madaniyati
fakulteti dotsenti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola folklor, xususan bolalar musia folklorining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bilimlarni beradi. Bolalar musiq folklorining turlari, folklorning boshqa turlaridan ajralib turuvchi jihatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *folklor, bolalar folklori, qo'shiq, o'yin, davlat istilolari, .*

Ajdodlarimiz davridan buyon bolalar musiqasi, xususan folklori milliy bayramlar, marosimlar hamda bolalar o'yinlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelgan. Ayniqsa ertak qahramonlari, tabiatda sodir bo'luvchi turli tabiiy hodisalar, hayvonlar, qushlar obrazlari, gullar, daraxtlar, mevalar, turfa o'simliklar, tong otishi hamda kun botishi haqida kuylangan kichik hajmdagi folklore asarlari (qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar va hokazolar)ni miriqib ijro etishgan.

Bolalar folklori ikki guruhga ajratiladi:

1. Aynan bolalarning o'zi ijro etadigan musiqiy asarlar.
2. Kattalarning bolalar to'g'risida ijro etadigan asarlar.

Birinchi guruhga bolalar ijro etadigan sanoq o'yinlari, topishmoqlar yoki topishmoqli o'yinli qo'shiqlar. Bunday o'yinlarda ko'proq so'zlarning she'riy tarzda ijro etilishi, kuy esa regitativ xarakterda bo'lishi kuzatiladi. Ular mehnat, yil kunlari, mavsumlar, sanalar, marosimlar, bayramlarga bag'ishlangan yoki oddiy ko'ngilochar holatda bo'lishi mumkin.

Bolalar folklor qo'shiqlari janri, xarakter xususiyati, hajmi va mazmunidan qat'i nazar, bolalarga tushunarli bo'lishi, melodic jihatdan soda va ravonligi bilan boshqa qo'shiqlardan ajralib turadi. Shu bilan bir qatirda, bolalar kuylaydigan qo'shiqlarning matni ham ularga tushunarli tarzda yozilishi, qisqa va ravon bo'lishi zarur. Bu kabi folklor qo'shiqlariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: "Olatoy", "Boychechak", "Chuchvara qaynaydi", "Zuv-zuv borag'ay" kabi qo'shiqlar, "Yo ramazon" kabi aytishuv shaklidagi qo'shiq-aytimlar.

Shuni alohida eslatib o'tish kerakki, O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan urushlar, bosib olishlar, davlat istilolari, turli qo'zg'olon-u to'ntarishlar natijasida bolalar folklor musiqasi butunlay yoki qisman yo'qolib ketgan. Tabiiyki, bunday ayancli voqealar xalq turmush tarzining og'irlashishiga olib kelgan. Buning natijasida esa bolalar kattalar qatori og'ir mehnatga jalb qilingan va aynan ana shu ularning o'yin kulgu qilishiga yo'l

bermagan. Shu sababli ham bolalar musiqasi to'y-bayramlar, turli milliy hamda diniy marosimlar bilan bog'lanib rivojlangan.

Musiqiy folklor, xususan bolalar folklori uchun yoddan kuylaah, boshqalardan eshitilgan hamda yodda qolganlarni aytish, kundalik muhit, bolalar o'sgan sharotining o'xshashligi xosdir.

O'zbekistonning har bir hududi o'z musiqiy an'analariga hamda folkloriga egadir. Masalan: Farg'ona bolalar folklor musiqasi Buxoro musiqa uslublaridan, Qashqadaryo-Surxondaryo, yoki Xorazm musiqalaridan o'z shevasi hamda aytish uslublarining o'zgachaligi bilan farq qiladi.

Bolalar musiqa asarlari tuzilishini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. A1, A1,

A ... – Bir mavzuning aynan o'zgarmagan holda takrorlanishi.

2. A1, A1 , A1 ... – Melodiya bir xilligi saqlangan holda so'zlar o'zgarishi yoki melodiyaning qisman o'zgarishi.

3. AV, AV1 , AV2 ... – Melodiya naqorat bilan ijro etilishi melodiya teksti o'zgarmagan holda naqorat o'zgarishi va hokazo.

Ikkinchi guruhga kiruvchi qo'shiqlar kattalar tomonidan kichik bolalarga kuylanib, ularda kattalarning orzu-umidlari, kichiklarga qilingan pand-nasihatlar hamda izhor etiladigan mehr-muhabbati jo qilingan ohang-u she'rlar orqali kuylanadi.

Bunday qo'shiqlar qatoriga ona-yu buvilar farzandlariga kuylaydigan allalar, turli lirik qo'shiqlar, doston-u aytilmlarni kirgizish mumkin. O'zbekistonning ba'zi hududlarida ertak hamda dostonlarni qo'shiq ohangida aytish uslubi, ya'ni "G'azali metal" keng tarqalgan. Qadim zamonlarda kattalar tomonidan ertak-u rivoyatlar, ba'zan hatto yirik dostonlar ham bolalarga tushunarliroq bo'lishi uchun shunday uslubda aytib berilgan. Mana shu tarzda xalqimizning "Yoriltosh", "Kun tug'mish", "Zumrad va Qimmat", "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Avazxon", "Toxir va Zuxra" kabi ko'plab ertaklar va dostonlar kuylanib kelingan.

O'tgan asrning 30-yillariga kelib xalq musiqa me'rosi kabi bolalar musiqa folklorini notaga va garomplastinkalarga yozib olish yo'lga qo'yildi va ko'plab bolalar qo'shiqlari to'plamlari nashr qilindi. Bunday to'plamlarning birinchisi kompozitor I.Akbarovning "30 ashula" to'plami edi. SHuningdek, ko'plab bolalar musiqasi folklori Yu.Rajabiyning "O'zbek xalq musiqasi" nomli ko'p jildli to'plamiga kiritildi. Ular orasida "Bahor keldi", "Binafsha", "Boychechak", "Hey lola", "Qish keldi", "CHamanda gul", "Laylak keldi", "Quyon", "Qichqir qo'rozim", "Sichqon", mehnat qo'shiqlaridan "Paxta teradi", "Paxta terimi", "Bu bog'da olisha", "Halinchak", "Dangasa", CHori-chambar, "CHitti gul" va boshqa ko'plab mavzularidagi qo'shiqlar kiritilgan.

Yigirmanchi asr o'rtalari va asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan bolalar kompozitorlari ijodi samarali bo'ldi. Ular sirasiga kiruvchi I. Akbarov, G'. Qodirov, F. Nazarov, D. Omonullayeva singari buyuk o'zbek kompozitorlarining bolalar uchun yozgan asarlari nafaqat bolalar, balki umumiy o'zbek musiqasi uchun ham bebaho xazinaga aylandi.

Yigirmanchi asrning o'rtalariga kelib folklor namunalariga talab oshgani natijasida folklor namunalarini to'plash, ularni yozib olish, notaga tushurish masalalari dolzarb muammoga aylandi. Respublikamiz musiqasi namoyondalari bu yo'lda, o'zbek musiqiy folklori rivojlanishida o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar. Uzoq yillar davomida qilingan harakatlar natijasida o'tgan asrning 50-60-yillarida bir nechta folklor ekspeditsiyalari tashkil qilindi va ular tomonidan shu kungacha og'izdan og'izga o'tib, og'zaki tarzda tarqalib, shakllanib kelgan folklor namunalari qog'ozga yozib olinib, keng ommaga taqdim qilindi.

Ushbu folklor ekspeditsiyalari tarkibiga kirgan I. Akbarov, F. Karomatov singari musiqashunoslar turli viloyatlarda bo'lib, har bir hududning folklor namunalarini to'plab, yozib olishga muvaffaq bo'ldilar. Qadimgi Markaziy Osiyoning antik madaniyati, uning ko'pgina o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash orqali ushbu atoqli olimlar folklor musiqasini o'zganishning o'ziga xosligini, cholg'u ijrochiligida sof mahalliy uslublarning ahamiyatini ko'rsatib berdilar.